

RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING SAVDO XIZMATLARIDA URNI

Maxmatqulov G'olibjon Xolmo'minovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM dotsenti

ВАЖНОСТЬ ЦИФРОВИЗАЦИИ В РАЗВИТИИ СФЕРА УСЛУГ ТОРГОВЛА

Махматкулова Галибжана Холмуминовича

Университет экономики и педагогики НОУ доцент

University of Economics and Pedagogy NEI associate professor

Makhmatkulov Golibjon Kholmuminovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada cavdo xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishida raqamlashtirishning ahamiyati asoslangan. Respublikamizda savdo xizmatlari sohasining raqamlashtirish zaruriyati tahlil qilingan. Transformatsiyalash texnologiyalarini joriy etish bilan ko'p tarmoqli xizmatlar sohasining integratsiyasini ta'minlash va ularni kompleks boshqarishning zamонавиј intellektual tizimi masalalari tadqiq etilgan.

Аннотация В статья основана на важности цифровизации в развитии сферы услуг торговла. Проанализирована необходимость оцифровки торговых услуг в нашей стране. Исследованы вопросы обеспечения интеграции многопрофильных служб и их управления современных интеллектуальных систем с внедрением трансформационных технологий.

Annotation The article is based on the importance of digitalization in the development of the trade services industry. The need to digitize trade services in our country has been analyzed. The issues of ensuring the integration of multidisciplinary services and their management of modern intelligent systems with the introduction of transformation technologies are investigated.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya; raqamli texnologiya; raqamli iqtisodiyot; "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi; raqamli infratuzilma; savdo xizmatlarini rivojlantirish; ekonometrik model; modellashtirish

Ключевые слова: цифровая трансформация; цифровая технология; цифровая экономика; Стратегия «Цифровой Узбекистан-2030»; цифровая инфраструктура; развитие торговли услуга; эконометрическая модель; моделирование.

Keywords: digital transformation; digital technology; digital economy; Strategy "Digital Uzbekistan-2030"; digital infrastructure; development of trade in services; econometric model; modeling

KIRISH

Savdo xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirish nazariyalari mamlakatda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda davlat boshqaruvi yo'nalishlarini shakllantiradi. Biroq ularni o'rganish bilangina cheklanib bo'lmaydi, chunki ular ko'p jihatdan mintaqalarning iqtisodiy o'sish nazariyalariga tayanadi.

Jahonda raqamlashtirish jarayoni davom etmoqda. Hatto ilg'or mamlakatlarda ham bu jarayon tugallanmagan va raqamlashtirish darajasi tarmoqdan-tarmoqqa qadar sezilarli o'zgarib boradi. Ba'zi sohalar allaqachon axborot texnologiyalarining anchagini ta'siriga uchragan. Xususan, chakana savdo bu yo'lning boshida turibdi va raqamli texnologiyalarni ayrim jarayonlarigagina joriy etmoqda.

Dunyo iqtisodiyotida tovarlar, kapital, ishchi kuchi bilan bir qatorda xizmatlar bozori ham mavjud. Ushbu bozor murakkab tizimdan iborat bo'lib, uning asosiy vazifasi aholini xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi. Xizmatlar bozori asosida keng va tez rivojlanayotgan dunyo xo'jaligining xizmat ko'rsatish tizimi sohasi yotadi. Dunyo iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasi hayot darajasi va sifatini oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son farmoniga muvofiq «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan [1].

Elektron hukumatni rivojlantirishning strategiya doirasida katta ma'lumotlarga ishlov berish va anjomlar internetini, shuningdek jamoatchilik joylarida kuzatuv va monitoringning intellektual tizimlarini joriy etish orqali "aqli" va "xavfsiz" shaharlar va mintaqalar bunyod etish bo'yicha bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Savdo xizmat transformatsiya jarayonining, nazariy tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtida uning nazariyasi paradigma holatida, ya'ni hozirgi izlanish vazifalarini yechish uchun ko'pchilik tomonidan qabul qilingan nazariya darajasidir. Olib borilgan tahlil Savdo xizmat ko'rsatish sohasining transformatsiyasi, evolyusion rivojlanish yo'lidan borayotganini ko'rsatadi. Rivojlanish bosqichlari davomida shakllanishi va turli faoliyat darajasiga

muammolarni yechish yo'llariga, ya'ni turli innovasion tushunchaga ega bo'lishi talab etiladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili

Jahonda savdo sohasini samarali rivojlantirishga, bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlarning turlarini kengaytirishga oid tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, soha xizmatlari samaradorligini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish masalalari ham ustuvor vazifalar sifatida baholanmoqda. Bugungi kunda savdo jarayonini rasional tashkil qilish va savdo sohasini rivojlantirish hajmining o'rta va uzoq muddatlarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarini asoslash hamda sotish xizmatlari samaradorligini oshirishda sinergetik samaradorlik va klaster yondashuvlarni samarali qo'llash yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar ko'lami yanada kengaytirilmoxda. Bularning barchasi aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan bo'lib, shu jihatdan savdo sohasini rivojlantirish bilan bog'liq holda tadqiq qilishni taqozo qiladi.

Savdo xizmatining kundan-kunga takomillashib, transformatsiyalanishini, uning sinergik xususiyatiga ega ekanligi olimlar tomonidan to'liq o'rganilmoqda. Oxirgi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar haqli ravishda xizmatning jarayon ekanligini ta'kidlab kelmoqda. Xizmat jarayonida ma'lum ketma-ketlikda harakatlar yoki operatsiyalarning bajarilishi "...xizmat ko'rsatish jarayonlar ssenariyasi" ekanligini "xizmatlar teatridagi servis jarayonlarda mijozlar bilan aloqada bo'lish, "...xizmat-harakatni bildiradi" [2] deb ko'rsatmoqda.

B.Abdukarimov talqinida "savdo xizmati" tushunchasiga keng ma'noda, "savdo – xizmatning alohida turi bo'lib u bir tomonidan ishlab chiqaruvchilarga xizmat qiladi, ikkinchi tomonidan iste'molchilarga, uchinchi tomonidan Davlatga xizmat qiladi va to'rtinchidan u boshqa iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga ham xizmat ko'rsatadi, ularni xizmatlaridan iste'molchi sifatida foydalanadi va ular bilan aloqada bo'ladi" deb ta'kidlagan.

A.Soliyev bu tushunchaga "Savdo xizmati sifatini oshirish xaridorlarga maslahat berish, tovarlarning namunalarini harakatda ko'rsatish, reklama va axborotning turli shakllarini rivojlantirish yo'li bilan tovar tanlab olishda xaridorlarga yordam berishni ham taqozo etadi" deb ta'rif bergan.

Ammo hozirgi vaqtida ko'pgina mualliflarning ta'kidlashicha, transformatsiyaning ta'rifiy ifodalanishida umumiylar birlig sezilarli darajada emas va shu bilan birga, uning umumiylar ilmiy me'yori ham yetarlicha yoritib berilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolaning maqsadi savdo xizmatlari sohasining rivojlanishida raqamlashtirish jarayonining ahamiyatini tahlil qilish va baholashdan iborat.

Ushbu maqola mavzusini yoritishda statistik, taqqoslama, guruhlash, ekspert baholash, tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Savdo xizmatlar sohasi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining yetakchi sektorlaridan biriga aylanmoqda. Savdo xizmatlarning ijtimoiy-iqtisodiy yo'naltirilganligi qo'shimcha ish o'rnlari yaratishga, xarajatlarni qisqartirishga, savdo xizmat ko'rsatishi vaqtini qisqartirishga va aholi hayoti sifati yaxshilanishini ta'minlashga ko'maklashadi. Keyingi vaqtarda savdo xizmatlar sohasi qulay iqtisodiy sharoitlarda rivojlandi.

Aholiga cavdo xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi uchun yangi yondoshuvlarni, model va usullarni izlash hamda joriy etishni taqozo etadi.

O'zbekistonning bugungi strategik rivojlanishida ham aynan raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi ilgari surilmoqda. Shu bilan birga, AKT rivojlanishi darajasi yuqori emas, Savdo tarmoq rivojlanishining mavjud sur'atlari vazifalar samarali hal etilishini, jamiyatni modernizatsiyalashni va O'zbekistonning raqobatbardoshligini ta'minlash imkonini bermaydi. AKT iqtisdiy ahamiyatli savdo sohalarda yetarlicha joriy etilmayapti, mahalliy dasturiy mahsulotlar yetarlicha ishlab chiqarilmayapti, davlat boshqaruvida axborot texnologiyalari zaif joriy etilmoqda, savdo xodimlarining kompyuter savdoxonligi darajasi internet xizmatlarni keng qo'llash imkonini bermaydi.

Axborot texnologiyalarini joriy etishning past darajasi onlayn xizmatlarni sotib olish bo'yicha imkoniyatlarni, shuningdek, bozor ishtiroychilarini va davlat organlari o'rtasida ma'lumotlarni elektron o'zaro ayirboshlashni tashkil etishni cheklaydi, bu ham aloqa xizmatlarining jadal o'sishiga to'sqinlik qiladi.

2030 yilgacha maqsadli parametrlar bilan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini 2,5 baravar o'stirishni ta'minlash mo'ljallangan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida savdo xizmatlar sohasi tarmoqlarini rivojlantirish, tarmoqni texnik jihozlash raqamli iqtisodiyotga to'liq darajada o'tkazish imkonini beradi, natijada, respublika iqtisodiyotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ulushi 3,5 foizgacha o'sadi.

Xorijiy kreditlarni albatta joriy etish, jumladan quyidagi ko'lamli loyihalarni amalga oshirishga jalb etilgan taqdirdagina telekommunikatsiya, televide niye va radioeshittirish tarmog'ida ustuvor vazifalarni amalga oshirish mumkin:

Biz iste'molchilarining ehtiyoj va talablari doimiy ravishda o'sib borayotgan davrda yashayapmiz. AT va venchur moliyalashtirish innovasion biznes modellariga ega bo'lgan bozor ishtiroychilarining bozorga chiqishini

yengillashtirdi. Internetning barcha yerda tarqalishi esa raqamli transformatsiya, raqamli servislarning paydo bo'lishiga imkon berdi.

Xozirgi paytda davom etayotgan raqamlashtirish jarayoni global iqtisodiyotda axborotlarni to'plash, qayta ishlash, uzatish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlarning tejalishi hisobiga tub o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ammo raqamli transformatsiya jarayonini axborot texnologiyalarni oddiy joriy etish deb hisoblamasliklari kerak. Shuningdek korporativ veb-saytni, Telegram botni, mobil ilovani ishlab chiqish va ishga tushirish va ijtimoiy tarmoqlarga kirish, tashkilotlar o'zlarini raqamli deb hisoblashiga imkon berishiga ishonish noto'g'ri.

Sarhisob qilayotib, quyidagilarni Ryespublikada logistikani rivojlantirish yo'lidagi asosiy muammolar deb aytish mumkin:

- tovarlar va xizmatlarni taqsimlash tizimi oqilona rivojlantirilmaganligi (taqsimlash tizimini rivojlantirish umumiyligi strategiyasining yo'qligi hamda yirik va o'rta ulgurji savdo darajasida uyushgan tovar bozorlari yetishmasligi);
- zamonaviy kommunikatsiya tizimlari past darajada rivojlanganligi;
- transport infratuzilmasining, eng avvalo, yo'llar infratuzilmasining eskirganligi, shuningdek, yuk terminallarining yetishmasligi va ularning texnik-texnologik jihatdan qoloqligi.

Aslini olganda raqamli transformatsiyalashuv ilg'or texnologiyalar asosida innovasion mahsulot va xizmatlarni yaratish, mutloq yangi bo'lgan imitasion modellar [11,18] va ilg'or tahliliy usullarning yaratilishi orqali namoyon bo'ladi. Savdo xizmat transformatsiya jarayoni haqidani atsiya iliy usullar Savdo xizmat ko'rsatish texnologiyalarga investisiya kiritishni o'z ichiga olgan muayyan Savdo xizmat ko'rsatishning barcha mavjud modelini [12], ya'ni to'g'ridan-to'g'ri tuzilishiga, rivojlanish srtategiyasiga, mijozlar bilan ishlashga, mahsulotlarni ilgari surish va xizmat ko'rsatish usullari, va hatto xizmat ko'rsatish madaniyat kabi o'zgarishlar to'plami ekanligini tushinish kerak.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish ko'plab afzalliklarga ega bo'lib, u turli xizmatlar, ko'ngilochar, ta'lif, ilmiy va axborotga oid kontentlarga ega bo'lgan holda ushbu jarayonlarning sifatli, tez va qulay bo'lishini ta'minlaydi. Raqamlashtirish to'lovlar narxini va qiymatini pasaytiradi va yangi daromad manbaiga aylanadi. Onlayn muhitda ko'rsatilayotgan xizmatlarga haq to'lash an'anviy iqtisodiyotdagidan sezilarli darajada kam bo'ladi (ayniqsa, realizatsiya bilan bog'liq xizmatlar xarajatlarini kamaytirish xisobiga), shu bilan birga davlat va tijorat xizmatlari barcha uchun ommabop bo'lib boradi. Bundan tashqari raqamli dunyoda tovarlar va xizmatlar global bozorda o'z xaridorini tezda topishi va dunyoning istalgan nuqtasidan ham hammabop

bo'lishi mumkin. taqdim etilayotgan xizmatlar iste'molchilarning hoxish-istiklariga mos holda qisqa muddatda qayta ishlanishi mumkin bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot chakana savdo, transport, telekommunikatsiya, sug'urta va bank ishida haqiqatga aylanib ulgurdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "...raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi, yurtimiz "Xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi" bo'yicha 2019 yilda 8 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da, hali juda ham orqadamiz. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq, desak, bu ham haqiqat...", deb takidladi. Shu tufayli taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqr kirib bormoqda .

Logistika samaradorligi indeksi – LPI (Logistics Performance Index) – tovarlarning oson yetkazib berilishini hamda milliy va xalqaro darajada savdo logistikasi holatini ko'rib chiqadigan Juhon banki indeksidir. Ko'rsatkich xalqaro savdoda yetkazmalar zanjirlari ish samaradorligini o'lchaydi va har 2 yilda baholanadi.

Logistika samaradorligi indeksini yaxshilash va logistikani rivojlantirish sohasida 2030 yilgacha yuqori natijalarga erishish bo'yicha qo'yilgan vazifalarni bajarish maqsadida bir qator vazifalarni hal qilish talab etiladi.

Biroq Ryespublikamizda logistikani rivojlantirish yaqqol ortda qolayotganiga qaramay, oxirgi vaqtida bu sohada ijobjiy siljishlar kuzatilmogda. Logistika xizmatlariga talab ortmoqda, bu esa logistika kompaniyalarini rivojlantirishga va ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirishga rag'batlantiradi. Boz ustiga bunday tendensiya har yerda kuzatilayotgani muhim faktdir. Ayniqsa yuk yetkazib berish, omborxona xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha kompleks xizmatlar ko'rsatadigan kompaniyalar segmentida faol o'sish kuzatilmogda.

Respublikaning nafaqat markaziy hududida, balki qolgan qismlarida ham zamonaviy logistika terminallarini qurish ham ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Va bu sohani yaxshilash bo'yicha qo'yilgan ko'pchilik vazifalar samarali amalga oshirilayotganligini inkor etib bo'lmaydi.

Bugungi kunda raqamli transformatsiya deyarli har qanday faoliyat sohasiga taalluqlidir.

Terminal va konteyner texnologiyalardan foydalangan holda logistikani rivojlantirish prinsiplariga asoslangan holda tovar harakatlanishini takomillashtirish.

Natijada savdo xizmatlari 2018-2030 yillarda 2,5 baravar oshadi.

1. Savdo markazlari 2030 yilgacha zamonaviy shakl kasb etadi va universal "markazlar" va ko'p tarmoqli majmualarga aylanadi. Keyinchalik ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati kengayadi (tibbiy xizmat ko'rsatish, ta'lif va ko'ngilochar xizmatlar).

2. Iste'mol bozori tizimida "Aqli shahar" loyihasi doirasida uning tarkibiy qismi – "Aqli iste'mol bozori" amalga oshiriladi, u raqamli texnologiyalarni faol joriy etishni va internet-savdoni, omborxona va logistika infratuzilmasini rivojlantirishni nazarda tutadi.

3. Qalbakilashtirilgan va sifatsiz mahsulot bilan kurash samaraliroq bo'ladi.

4. Tovarlar va xizmatlar to'g'risida axborot olishning interaktiv servisi tashkil etiladi, bu esa tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshiroq nazorat qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, mamlakatimiz tovarlarini realizatsiya qilish uchun elektron savdo maydonchasi yaratish nazarda tutilmoxda, bu esa ishlab chiqaruvchilarga o'z mahsulotini masofadan turib va vositachilarsiz sotish imkonini beradi.

Aytish joizki, raqamli transformatsiya ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi. Birinchidan, tushum o'sadi. Bu biznes, mahsulot va xizmatlarning yangi yo'nalishlarini ishga tushirish hisobiga yuz beradi. Masalan, telekommunikatsiyalar sohasida bu musiqa va video strimingi (oqimli onlayn eshittirish) uchun raqamli servislar yoki aqli shahar uchun bulutli platformalar bo'lishi mumkin.

Ikkinchi ijobiy samara operasion xarajatlarning pasayishi va jarayonlar samaradorligi oshishida namoyon bo'ladi. Buxgalteriya, soliq va kadrlar hisobini yuritishni avtomatlashtirish axborotning katta hajmini tez va sifatli boshqarish imkonini beradi. Ma'lumotlarni "Big Data" usuli bilan qayta ishlash maqsadli mijozlarni muayyan mezonlar bo'yicha o'ta aniqlik bilan ajratib olish (targetlash) imkoniyatlarini ochib beradi. Bu esa marketing tadbirlarining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, boshqaruv qarorlarining sifati ham oshadi. Rahbar endi mas'ul bo'llimlar to'playdigan hisobotlarga bog'liq bo'lib qolmaydi, balki tizimni ochishi va umumiyligi ma'lumotlardan aniq ko'rsatkichlarga o'tishi, olingan natijalarni esa darhol oldingi davr natijalari bilan solishtirishi mumkin bo'ladi. Jarayonlarni avtomatlashtirish tufayli prognoz qilishning ekonometrik modellari [20,22] ancha aniq bo'lib boradi.

XULOSA

Tranformatsiyalash texnologiyalarini joriy etish natijasida shahar va hududlar infrastrukturasi, uy-joy, savdo xizmatlari, transport logistikasi, favqulodda xizmatlarni yagona kompleksiga birlashtirilib, ular o'zaro integratsiya va muvofiqlashtirilib boshqarishning zamonaviy intellektual tizimi joriy etiladi. So'nggi o'n yil raqamli texnologiyalarga bo'lgan talabni ko'rsatdi va keyingi o'n yil ularni rivojlanishi uchun yangi vektorni o'rnatadi. Axir bugingi kunda hatto eng birinchi qarashda mijoz buyurtmachi nuqtai nazardan g'ayrioddiy istak tez va muvaffaqiyatlari amalga oshrilishi kerak. Aynan zamonaviy texnologiyalardan foydalanadigan korxonalar, tashkilotlarning kelajagi bor, chunki ular iste'molchilarga eng ilg'or xizmatlar va servislarni taqdim etadi yoki bozorda paydo bo'ladigan barcha spektrlardan eng yuqori sifatli va eng haridorbob mahsulotni taklif qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сон фармони. <https://lex.uz/ru/docs/5030957>
2. Лавлок К. Маркетинг услуг.Персонал, технология, стратегии пер.с.анг.4-е издМ.:Издательский дом "Вильямс"2005 г.
3. Рахимов, А. Н., Махматкулов, Г. К., и Рахимов, А. М. (2021). Построение эконометрических моделей развития сферы услуг для населения региона и их прогнозирование. Американский журнал прикладных наук , 3 (02), 21–48.
4. Jo'rayev, F. D., Ochilov, M. A., Rakhimov, A. M., & Doliyev, S. Q. (2023). Algorithms for improving models of optimal control for multi-parametric technological processes based on artificial intelligence. In E3S Web of Conferences (Vol. 460, p. 04013). EDP Sciences.
5. Ochilov, M. A., Juraev, F. D., Maxmatqulov, G. X., & Rahimov, A. M. (2020). Analysis of important factors in checking the optimality of an indeterminate adjuster in a closed system. Journal of Critical Review, 7(15), 1679-1684.
6. Mukhiddinov, Kh S., and F. D. Juraev. "Methods of Macroeconomic Modeling." International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD), e-ISSN: 2456-6470.
7. Muxitdinov, K. S., & Khudoyorov, L. N. (2016). Information-analytical support systems forecasting small businesses. Web of Scholar, (5), 12-14.

8. Rakhimov, A. M. (2019). Important of bank deposit policy in expanding of the deposit base of commercial banks. Экономика и бизнес: теория и практика, (5-2), 198-200.
9. Rahimov, Abdihakim. "Mehmonxonalar va umumiy ovqatlanish korxonalarini faoliyatini ekonometrik modellashtirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlar." Iqtisodiyot va ta'lim 24.6 (2023): 245-250.
10. Рахимов, А. (2022). Аҳолига яшаш жой ва умумий овқатланиш хизматлари ривожида ички ва ёндош тармоқларнинг таъсирини баҳолаш (қашқадарё вилояти мисолида). Iqtisodiyot Va ta'lim, 23(4), 397–402.
11. Махматкулов, F. (2022). Аҳолига савдо хизматларини инновацион ривожлантириш салоҳиятини баҳолашда тренд моделларини танлаш мезонлари (қашқадарё вилояти мисолида). Iqtisodiyot Va ta'lim, 23(4), 381–386.
12. Махматқулов, F. (2023). Савдо корхоналарининг инновацион фаолиятини эконометрик моделлаштириш. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(6), 33–38.
13. Maxmatqulov, G. X. (2023). Savdo xizmatlari tarmog'ini rivojlantirish masalalariga tizimli yondoshuv. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 175–182. Retrieved from
14. Juraev , F. D.(2021). Problems Of Informatization Of Management Of Agricultural Industry And Modeling Of Agronomic System In A Market Economy. The American Journal of Applied Sciences, 3(02), 49–54.
15. Juraev, A. Kh, et al. "Nonlinear control object identification problems: Methods and approaches." E3S Web of Conferences. Vol. 392. EDP Sciences, 2023
16. Жўраев Ф. Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни ривожлантиришнинг истиқболдаги муаммолари ва уларни эконометрик моделлаштириш //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2021. – №. 4. – С. 377-385.
17. Жўраев , Ф. Д., & Аралов, F. M. (2023). Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш жараёнини эконометрик моделлаштириш зарурятининг асосий жиҳатлари. Educational Research in Universal Sciences, 2(2), 36–43. Retrieved from
18. Jo'rayev, F.D., and G. Aralov.M.(2023). Qishloq xo 'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini ekonometrik modellashtirish zaruriyatining asosiy jihatlari." Educational research in universal sciences 2.2: 36-43.

19. Жўраев Ф. Д. Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни қисқа муддатли прогнозлаштириш //Инновацион технологиялар. – 2021. – №. 2 (42). – С. 92-95.
20. JO'RAYEV F. D. Econometric modeling of the development and management of agricultural production based on cluster analysis (on the example of the 584 kashkadarya region) //Экономика.–Т. 8.–С. 584-590.
21. Khudoyorov, L. N., Noraliyeva, S. S., & Baxronova, N. S. (2024). Development of digital economy and its role today. Экономика и социум, (5-1 (120)), 432-434.
22. Khudoyorov, L. N. (2020). Forecasting the development of small business and private entrepreneurship on the basis of multifactorial empirical models. Science and World, (11 (87)), 41.
23. Khudoyorov, L. N. (2023). The objective necessity of modeling the level of growth in ensuring the development of small business. Экономика и социум, (6-1 (109)), 225-227.
24. Khudoyorov, L. N. (2023). Development of small business and private entrepreneurship in region kashkadarya. In Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации (pp. 129-131).
25. Maxmatqulov , G. . (2022). A complex systemic issue of the development of the network of trade services. Development and Innovations in Science, 1(16), 10–13. извлечено от
- 26.. Maxmatqulov , G. X. (2023). "Kompyuter tizimlari va tarmoqlari" fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'qitishda virtual cisco packet tracer dasturidan foydalanish. Educational Research in Universal Sciences, 2(15 SPECIAL), 483–486. Retrieved from
27. Maxmatqulov G. K., Malikova N. T. Stochastic model activity system of rail transport //European Science Review. – 2019. – Т. 1. – №. 1-2. – С. 152-156.
28. Рахимов Абдиҳаким Мухаммадиевич. (2021). Услуги по проживанию и обслуживанию населения значение эконометрического моделирования в нормативной оценке требований потребителей для улучшения качества отображения. Международный междисциплинарный исследовательский журнал Galaxy , 9 (12), 1043–1048. Получено с
29. Muhammadiyevich R. A. Yashash joy (mehmonxonalar) va umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatishning ichki va tashqi omillari hamda texnik-iqtisodiy sifat darajasi baholash //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – С. 163-166.